“TIBBIY BIOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA NOAN’ANAVIY TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

M.M.Turdieva

Qo‘qon universiteti Andijon filiali assistenti

Annotatsiya: Ushbu makolada *“Pazl”*, *“Klaster”* va *“Ven diogramma”*si metodlaridan noananaviy usullaridan foydalanilgan. O‘qitish metodikalarini muntazam takomillashtirib borish va noa’naviy ta’lim usullaridan foydalangan holda talabalarga sifatli ta’lim, va ko‘nikmalar berib borish. Pedagogika fani oldida turgan asosiy muammolardan biri sanaladi.

Kalit so‘zlar; Xujayra aktiv, passiv vizikular, metodika, raqobatbardoshlilik, innovatsiya, ekzositoz.

Abstract: This article uses non-traditional methods such as the “Puzzle”, “Cluster” and “Venn Diagram” methods. Continuous improvement of teaching methods, and providing students with quality education and skills using non-traditional teaching methods. is one of the main problems facing the discipline of pedagogy.

Key words: Cellular active, passive vesicles, methodology, competitiveness, innovation, exocytosis.

Аннотатсия: В данной стате используются нетрадитсионные методы, такие как «Головоломка», «Кластер» и «Диаграмма Венна». Постоянно совершенствоват методы обучения и предоставлят студентам качественное образование и навыки, используя нетрадитсионные методы обучения – это одна из основных проблем педагогики.

Ключевые слова: активнст клеток, пассивные везикулы, методика, конкурентоспособност, инновации, экзотситоз.

Kirish

Pedagogika fani bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Bu borada, har tamonlama rivojlangan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, oliy ta’lim muaassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash, tizimga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, noa’naviy ta’lim usullaridan foydalangan holda o‘qitish metodikalarini muntazam takomillashtirib borish bugungi Pedagogika fani oldida turgan asosiy muammolardan sanaladi.

Oxirgi yillarda Respublika oliy ta’lim tizimi misli ko‘rilmagan darajada rivojlanmoqdaki, buni hukumatimiz tomonidan ta’lim tizimiga berilayotgan etiborlarda ham ko‘rishimiz mumkin. *“Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q”[1]* deb ta’kidlagan edi Sh.Mirziyoev. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, oliy

ISSN 3030-3907

ta’limni yanada rivojlantirish maqsadida ham yetarlicha huquqiy me’yorlar yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta’lim maktablariga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish” [2] vazifasi qo‘yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ta’limni tashkil etish shakl, metod va vositalari “Pedagogika” fanining asosiy ob’ektlaridan biri bo‘lganligi uchun ham barcha pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘qitishning noa’naviy usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etish masalalari keng ko‘lamda yoritilgan. Xususan, M.Hakimova boshchiligida mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan “Pedagogika.Psixologiya” *[3]* darsligida 5-bob aynan pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan. R.Ishmuhamedov, M.Mirsolievalarning “O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari” *[4]* nomli qo‘llanmasida ta’limdagi innovatsion jarayonlar, oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchisining innovatsion kompetentligi, trenerlik faoliyati, mahorati va madaniyati, treninglar texnologiyasi hamda andragogik ta’lim tushunchalarining mohiyati yoritilgan. Shuningdek, N.Pirmatovning “An’anaviy va noan’anaviy pedagogik texnologiyalar” *[5]* nomli maqolasida an’anaviy ta’lim texnologiyasi va noan’anaviy ta’lim texnologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. S.Abdullaeva, R.Raupovalarning “Ta’lim va tarbiya metodlari va vazifalarini o‘rganish-bo‘lajak pedagoglar faoliyatining asosiy omilidir” nomli maqolada bo‘lajak pedagoglar tomonidan o‘qitish metodlarini o‘rganishlari, ulardan o‘quv jarayonlarida foydalana olishlari kabi masalalar o‘rin olgan.

Yuqorida qisman sanab o‘tilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarida yoki olimlar tomonidan yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda o‘quv jarayonlarida pedagogik texnologiyalar, te’lim metodlari va vositalari, ta’limning noan’anaviy metodlaridan foydalanishga oid bo‘lgan nazariy materiallar keltirilgan halos. Ayni paytda, kabilar aynan “Tibbiy biologiya” fanini o‘qitishning noan’anaviy ta’lim metodlari xususida ilmiy-amaliy tahlillar, tajribalar amalga oshirilmagan.

ASOSIY QISM. Bugungi kunda oliy ta’lida ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash asosiy maqsad qilingan. Shu maqsadni amalga oshirishda boshqa oliy ta’lim muassasalari kabi Qo‘qon universiteti Andijon filialida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, filialda ta’lim yo‘nalishlarining tasdiqlangan o‘quv rejalariga muvofiq o‘qitilayotgan fanlarni pedagogik texnologiyalar asosida

ISSN 3030-3907

noa'anaviy usullardan foydalangan holda o'qitish yo'lga qo'yilgan. Shu ma'noda, tadqiqot natijalarimiz asosida Tibbiyot ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasiga muvofiq o'qitilayotgan "Tibbiy biologiya" fanidan 2 soatlik amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi ishlab chiqishga xarakat qildik. Mazkur metodika tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, mashg'ulotda qo'llanilgan noan'naviy metodlar, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy qism: auditoriyani darsga tayyorligini nazorat qilish, ta'lim vositalarini ko'zdan kechirish (doska, bor, texnik vositalar, prorektor, kompyuter va x.z.), talabalar bilan salomlashish, yo'qlama qilish, qisqa yangiliklar bilan tanishtirish.

Asosiy qism:

Yangi mavzu bayoni: Dars jarayoni quyidagi rejalar asosida tashkil etiladi:

Mavzu: Xujayra membirianasi transporti. Membriana orqali moddalar transporti *[6]***.**

1. Xujayra membirianasi transportiga asosiy umumiy tushunchalar.
2. Aktiv va passiv transport tushunchalari, ularning bir-biridan farqi.
3. Vezikular transport va ularning turlari.

Tayanch iboralar: xujayra, membiriana, aktiv va passiv transport, vezikular transport.

Mashg'ulot boshlanishida dastlab talabalar orasida "Blis - so'rov" metodi orqali quyidagi savollar beriladi:

1. Tibbiy biologiyada transport tushunchasi nimani anglatadi? Nima deb o'ylaysiz?


2. Aktiv transportchi?

3.Passiv transport nima?

4.Vizikular transportga ta'rif bering-chi.

Mavzuning birinchi rejasi ("Hujayra membirianasi transportiga asosiy umumiy tushunchalar") bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratiladi, bunda, quyida keltirilgan rasmdan ko'rgazma sifatida foylanish maqsadga muvofiq.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Transport tushunchasi.

Mavzuni ikkinchi rejasini yoritish davomida noan'anaviy metodlardan biri bo'lgan "Pazl" metodidan foylanish ta'lim sifatini ta'minlashga asos bo'ladi.

"Pazl" metodi. Bu metod 5 daqiqa mobaynida talabalarni mavzuga qiziqishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchi navbatda talabalar kichik guruhlarga bo'linadi. A-4 formatdagi qag'ozga mavzuga doir bo'lgan meteriallarni 6-7 qatordan kam bo'lmagan ma'lumotlarni yozib chiqiladi va va yozilgan har bir ma'lumotlarni maydalab tashlanadi.

Maydalangan ma'lumotlarni kog'oz jildlarga solib, har bir guruhlarga tarqatiladi. Talabalar bu metodikada o'zlari xarakat qilib tushunib oladilar, eng muhimi talabalar ushbu metod orkali ma'lumotlarni butlash uchun xarakat qilishadi. Tortishadi, e'tiborsiz o'tirgan talaba ham mashg'ulotda ishtirok etadi. Butlangan ma'lumotlarni birinchi bo'lib, bajargan talabalar o'qishni boshlashadi. Albatta, topshiriqni birinchi bajargan guruhlar rag'batlantirib boriladi.

Uchinchi rejani yoritishda talabalarga quyidagicha yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: Vizikulyar transportni 3 turi mavjud ular xaqida talabalar 3 guruhga bo'linib har bir tur bo'yicha ma'lumotlar berishadi.

1-guruhga : "Ekzositoz" xaqida ma'lumot bering topshirig'i, 2-guruhga: "Endositoz" xaqida, 3- guruhga esa, "Transsitoz" xaqida ma'lumot berishlari so'raladi. Har bir talaba guruhiga berilgan topshiriqni birgalikda bajarib, ulardan biri ma'lumot beradi. Bunda o'qituvchi olingan javoblarni umumlashtirgan holda, ma'lumotlarni yanada to'ldiradi.


Yakuniy qism:

Yuqoridagilar asosida, mavzu yakuniga yetkaziladi, umumlashtiriladi. Shuningdek, quyidagi tartibda uyga vazifa berilishi mumkin.

Uyga vazifa:

1-topshiriq. Ven diagrammasi asosida "kichik molekulali transport", "yirik molekulali transport" tushunchalarini xususiy va umumiy tomonlarini taqqoslang.

ISSN 3030-3907



2-topshiriq. Talabalar o‘tilgan mavzular bo‘yicha **Glossariy** tuzib kelish topshirig‘i beriladi.

Yakuniy qism: talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berish talabalarni baholash, yangi mavzu uchun tayyorgarlik ko‘rish.

Yuqoridagi o‘tkazilgan metodika kelajakda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish, bunda ta’lim jaryoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish kabi vazifalar, jumladan biologiya fani mashg‘ulotlarida ham ta’lim texnologiyalaridan foydalanib, dars samaradorligini oshirish shu sohadagi muhim ishlardan hisoblanadi. Xulosa qilib shuni alohida ta’kidlash kerakki, boshqa fanlardan farqli ravishda biologiya fani mashg‘ulotlarida talabalarning faolligini oshirish orqali ularda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda katta imkoniyatlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoev. 2022 yil 28-yanvardagi maktab ta’limini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi fikr-mulohazari. https://yuz.uz/news/
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga
1-ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. https://lex.uz/docs/4545884
3. M.Hakimova va boshqalar.Pedagogika.Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: Ishonch-hamkor. 2020-yil., 107-125 betlar.
4. R.Ishmuhamedov, M.Mirsolievalarning “O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. T.:Fan va texnologiyalar. – 2014 yil, 60 bet.
5. N.Pirmatov “An’anaviy va noan’anaviy pedagogik texnologiyalar”. 6th - International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany. Sep. 30th 2022., 26-27-betlar.
6. Muallif tomonidan olib borilgan dars jarayonlarida foydalanilgan materiallar.

ISSN 3030-3907